

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 6-13 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TASHQI SAVDO KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI



Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi kadrlar malakasini oshirish
va statistik tadqiqotlar instituti doktaranti (PHd)

Email: abdujalilovab97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizning 2010-2023 yillardagi tashqi savdo ko'rsatkichlarini statistik tadqiq etishning nazariy asoslari ifodalangan va tashqi savdo ko'rsatkichlari tahlili keltirib o'tilgan. Tadqiqot metodologiya sifatida tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil jadval, grafik, diagrammalar orqali keng yoritildi va yig'ilgan ma'lumotlar asosida guruhlangan va tashqi savdo ko'rsatkichlar asosida tahlili izohlangan.

Kalit so'zlar: Tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi savdo ko'rsatkichlari, mutloq nazariya.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2017 yildagi "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3351 sonli qaroriga muvofiq: Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish, tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlarning eksport hajmlari va turlarini ko'paytirish, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda; tadbirkorlik subyektlariga (ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ko'p bo'lgan tashkilotlardan tashqari, "O'ztreyd" va "O'zsanoateksport" aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno) tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini oldindan to'lov, ochilgan akkreditiv, rasmiylashtirilgan bank kafolati va eksport kontraktini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug'urta qilish bo'yicha polis mavjud bo'lmasdan xorijiy valyutaga eksport qilish huquqi beriladi.

Tovarlar, ishlar va xizmatlar eksporti faqat oldin amalga oshirilgan eksport operatsiyalari bo'yicha tadbirkorlik subyektida muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarzdorlik mavjud bo'lmaganda ushbu kichik band shartlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Bunda eksport qiluvchilarga tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini oldindan to'lov, ochilgan akkreditiv, shuningdek, xaridor banklarining kafolati yoki eksport kontraktini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug'urta qilish bo'yicha polis mavjud bo'lishi shartlarida eksport qilish huquqi saqlanadi; tovarlar, ishlar va xizmatlar eksport qiluvchining hisob raqamiga eksport kontraktini sug'urtalash polisi bo'yicha sug'urta qoplamasi summasi (milliy va/yoki xorijiy valyutalarda) tushganda, ushbu eksport

kontrakti bo'yicha debitor qarzdorlik summasi moliyaviy sanksiyalarni qo'llash maqsadlari uchun sug'urta qoplamasi summasiga kamaytiriladi: bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar qo'llanilgan holda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini tasdiqlash uchun import qiluvchilar tomonidan eksport bojxona yuk deklaratsiyasi majburiy taqdim etilishi bo'yicha talab bekor qilinadi;

Tashqi savdo deganda bir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan haq to'lanadigan olib kirishi, ya'ni import va haq to'lanadigan olib chiqish, ya'ni eksportdan iborat savdosi nazarda tutiladi. Dunyodagi 18 barcha mamlakatlarning haq to'lanadigan tovar aylanmasi yigindisi xalqaro savdo deb ataladi. Xalqaro savdo tushunchasi torroq ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, sanoati rivojlangan davlatlarda tovar aylanmasining yig'indisi, rivojlanayotgan davlatlarda tovar aylanmasining yig'indisi kabilar. Erkin savdo yoki proteksionizm siyosatini tanlash yoki uni qanday bo'lsa shu holda saqlash oldingi asrlarning harakteri edi. Bizning davrimizda bu ikki yo'nalish o'zaro bog'liqdir. Ammo ko'p hollarda uni bu qarama-qarshi birlik erkin savdo tamoyilining bosh vazifasini bajaradi (N.S. Ismailova, U.U. Shagzatov, 2019).

Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O'zbekiston bojxonaga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona organlaridan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat resurslari boshqaruviga qo'shiladi yoki ulardan ayirib tashiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston davlat davlatining statistik tekshiruvining statistik chegasi muhokama qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro savdoni vujudga kelishida bir qancha nazariyalar ilgari surilgan. Jahon iqtisodiyotida erkin savdo siyosatiga birinchi bo'lib Adam Smit o'z ta'rifini bergan edi.

Merkantilistik nazariya O'rta asrlar feodalizmining taraqqiyoti davrida G'arbiy yarimsharda topilgan oltin, undan pul sifatida foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Milliy davlatlar mustahkamlana bordi. Merkantilistlar nuqtayi nazariga ko'ra, dunyo cheklangan miqdordagi boyliklarga ega, shuning uchun bir mamlakatning boyishi faqatgina boshqa mamlakatning kambag'allashuvi hisobiga yuz berishi mumkin. Mutlaq ustunlik nazariyasi Merkantilistlarga keskin zarba bergan iqtisodchilardan biri Adam Smit bo'ldi. Adam Smitning tashqi savdo siyosati bir qancha farazlarga asoslangan • Mehnat yagona ishlab chiqarish omili Xalqaro savdoda ikki mamlakat ishtirok etadi, bu mamlakatlar ikki xil tovar bilan o'zaro savdo olib boradi; • Ishlab chiqarish harajatlari doimiy, ularning kamayishi tovarga bo'lgan talabni ko'paytiradi (A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev, 2015). Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganishda tashqi savdo muhim rol o'ynaydi va statistika tashqi savdoni chuqur har tomonlama tahlil qiladi. Tashqi savdo statistikasining vazifalari quyidagilardan iborat (U.V.G'afurov, B.E.Mamaraximov, Q.B.Sharipov, F.O.Otaboyev).

- tashqi savdoning hajmi, uning tarkibi va dinamikasini o'rganish;
- tashqi savdoning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- turli mamlakatlar tashqi savdosini taqqoslash va o'rganish;

Tashqi savdo faoliyatining statistika kuzatuvlari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi (B.G'oyibnazarov, Qahharov va boshqalar,2023) :

- Bojxona qo'mitasi boshqarmasi bojxona deklaratsiyasi ma'lumotlari asosda shakllantirilgan yuk tashqi savdosi ishlab chiqarish statistik ma'lumotlar;
- bojxona deklaratsiyasi va bojxona statistikasi bayoniga olinmagan, egalik huquqi rezidentdan norezidentga o'tgan yoki aksincha mahsulotlar eksport-importi hajmi statistika agentligining maxsus statistik kuzatuvlar tarmogi ma'lumotlari;
- Statistika agentligi statistikasi va maxsus kuzatuvlar asosidagi xizmatda amalga oshirilganlar eksport-importi ma'lumotlar. Turizm eksport va import ma'lumotlar, kirish va chiqishga bo'yicha turizm turistlarning harajatlari kuzatuv harakatlariga olgan holatda shakllantiriladi;
- qimmatbaho metallar yangi, nomonetar oltin, kumush, palladiy va h.k.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tashqi savdo ko'rsatkichlarini statistik tadqiq etishning nazariy asoslari qisqa ifodalangan. Tahqi savdo ko'rsatkichlari tahlili keltirib o'tilgan. Tadqiqot metodologiya sifatida tahliliy ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil jadval, grafik, diagrammalar orqali keng yoritildi va yig'ilgan ma'lumotlar asosida guruhlangan. Respublikamizning 2010-2023 yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy ko'rsatkichlar asosida tahlili izohlangan.

TAHLILVA NATIJALAR

Respublikada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023 yil yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 62,6 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,1 mlrd. AQSH dollariga yoki 23,9 % ga oshishini ta'minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etildi(1-jadval).

1-jadval

**Tahqi savdo aylanmasi va balansi
(yanvar-dekabr mln.AQSh dollarda)**

	2022	2023	Jami o'sish sur'ati %da	Jamiga nisbatan % da
Tashqi savdo aylanmasi	50500,3	62567,4	123,9	x
Eksport	19732,6	24426,2	123,8	100
Tovarlar	11020,3	10989,9	99,7	45,0
Xizmatlar	4456,7	5179,7	116,2	21,2
Nomonetar oltin	4255,6	8256,6	194,0	33,8
Import	30767,8	38141,2	124,0	100

Tovarlar	28220,3	35574,8	126,1	93,3
Xizmatlar	2547,7	2566,4	100,7	6,7
Saldo	-11035,2	-13715,0	x	x


Manba: Statistika agentligi axborotnomasi

O'zbekiston Respublikasining Eksport tarkibida tovarlar ulushi sanoat tovarlari bo'yicha 16,6 % ga, oziq- ovqat mahsulotlari 7,3 %ga xizmatlar esa 21,2 % ga teng bo'lgan. Mineral yoqilg'ilarning umumiy hajmi yanvar-mart oylarida 940,6 mln.AQSh dollarga yetgan (2- Jadval).

**2-Jadval. O'zbekiston Respublikasi XSST bo'yicha eksport tarkibi
(yanvar-mart)**

Tovar tarkibi	Hajmi mln.AQSh dollari	O'sish sur'ati %da	Umumiy hajmiga nisbatan %da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1777,6	109	7,3
Ichimliklar va tamaki	123	110,7	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yokilg'idan tashqari	324,9	82,5	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	940,6	77,4	3,9
Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	14,2	66,9	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1314,4	100,5	5,4
Sanoat tovarlari	4058,7	92,6	16,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1305,2	134	5,3
Turli xil tayyor buyumlar	1195,6	108,1	4,9
Boshqa tovarlar	8192,6	198,3	33,5
Nomonetar oltin	8153,8	198,4	33,4
Xizmatlar	5179,7	116,2	21,2

Manba: Statistika agentligi axborotnomasi



Manba: Stat.uz

1-rasm. 2022-2023 yillarda hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi hajmi

2023 yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi hajmi eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri bo'yicha 25186,3 mln. Aqsh dollarga teng va 2022-yilga nisbatan, 5417,3 mln. Aqsh dollarga ortgan (1-rasm). Eng quyi ko'rsatkich sirdaryo viloyati 372,7 mln. Aqsh dollarga teng.

3-Jadval


Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksporti hajmi va o'sish sur'atlari (yanvar-dekabr holatiga)

Davlatlar	Million. Aqsh dollari		O'sish sur'ati %da		O'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	3151,1	3307,6	150,9	105	1	1
XXR	2632	2461,8	104,1	93,5	2	2
Qozog'iston	1407,5	1372,5	119,4	97,5	4	3
Turkiya	16433,5	1248,5	97,1	76	3	4
Afg'oniston	756,3	856,7	113,3	113,3	6	5
Qirg'iz Respublikasi	982,5	631,5	124,1	64,5	5	6
Tojikiston	522,1	605	104	115,9	7	7

Fransiya	72,6	392,1	3,4m	5,4m.	22	8
Pokiston	185,2	269,1	142,3	145,3	10	9
BAA	122,9	261,7	2,2m	2,1m	16	10
Eron	139,8	180,6	79	129,2	11	11
Turkmaniston	197	171,2	102,7	86,9	9	12
AQSh	124,5	155,4	2,1m	124,8	15	13
Buyuk Britaniya	114,3	142,1	143,6	124,3	17	14
Litva	94,2	133,4	141,2	141,6	20	15
Ozərbayjon	133,7	131,6	176	98,4	13	16
Belarus	128,8	119	2,2m.	92,4	14	17
Hindiston	36,5	108	122	2,9m	31	18
Latviya	106,2	100,5	192,3	94,7	18	19
Polsha	137,9	88,9	155,5	64,5	12	20

Manba: Stat.uz axborotnomasi,2023


O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkorlaridan Rossiya, XXR, Qozg'iston, Turkiya kabi davlatlar bo'lgan. Rossiya bilan amalga oshirilgan eksport hajmi 2022 yilga nisbatan, 2023 yilda 156,5 mln.Aqsh dollarga oshgan (3-jadval).



Manba: Stat.uz

2-rasm. Tovarlar eksporti (FOB narxlarida, yillik)

O'zbekiston Respublikasi tovarlar eksporti 2023-yilda 19229,1mln.AQSh dollarga teng. 2016- yilda 8974 mln.AQSh dollarga teng bo'lib pasaygan. Umuman olganda, 2010 yilga nisbatan, 2023- yilda 1,64%ga o'sgan (2-rasm).



Manba: Stat.uz

3-rasm. Tovarlar importi (CIF narxlarida, yillik)

O'zbekiston Respublikasi tovarlar importi 2023-yilda 35574,8mln.AQSh dollarga teng. 2010-yilda 8685,4 mln.AQSh dollarga teng bo'lib pasaygan. Umuman olganda, 2010 yilga nisbatan, 2023- yilda 4,1%ga o'sgan (3-rasm).

4-Jadval.

Tovar va xizmatlar eksporti hajmi (Qit'alar kesimida)

Qit'alar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	+/- Farqi
Yevropa	5927,7	8429,4	8045,4	7566,6	8668,4	13516,3	7589,2
Osiyo	7062,5	7764,3	6624,4	8383	9096,6	8911,8	1849,3
Shimoliy Amerika	44	45,1	174	264,5	362,9	303,2	259,2
Janubiy Amerika	5,1	4,3	4,2	8,9	8,6	6,1	1
Afrika	10,3	19,4	22,5	45,9	41,7	35,2	24,9
Avstraliya va Okeaniya	1,4	2,5	0,1	0,2	1	5,2	3,8

Manba: Stat.uz

4-jadvalda Tovar va xizmatlar eksporti hajmi (Qit'alar kesimida) mln.Aqsh dollarda keltirilgan. Bunda Qit'alarning 2018dan 2023-yildan farqi qiymati asosida guruhlangan. Yevropa tovar va xizmatlar eksporti hajmi 2018 yildan 2023 yilga nisbatan 7589,2 mln.Aqsh dollarga ortgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tashqi savdo ko'rsatkichlarini doimiy ravishda kuzatish va baholash, o'zgarishlarga mos ravishda strategiyalarni yangilash, ularning axborotlar bazasini yangilab turish va tegishli tomonlar (hukumat, biznes, tadqiqotchilar) bilan almashish mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ekport va importni diversifikatsiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Shuningdek, tashqi savdo ko'rsatkichlari axborotlar bazasini shakllantirish, iqtisodiy rivojlanish va global raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon samarali strategiyalar ishlab chiqishga va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Ushbu nazariy asoslarni tushunish bizga tashqi savdo statistikasi ko'rsatkichlarini sharhlash va ularning iqtisodiy siyosat va natijalarga ta'sirini tahlil qilishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2017 yildagi "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3351 sonli qarori.
2. Soatov N.M., Nabiev H.G', Nabiev D.H., Tillaxo`jayeva G.N. "Statistika" darslik Toshkent-2011.
3. U.V.G'afurov, B.E.Mamaraximov, Q.B.Sharipov, F.O.Otaboyev, Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar. - O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «YANGI NASHR», 2019. - 315 bet. ISBN: 978-9943-05-691-
4. A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev, "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar darslik", Toshkent 2015
5. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, Tashqi iqtisodiy faoliyat axborotnomasi, 2023.
6. Huda Al Basher Trade Flow and Nation Brand Distance: A Structural Gravity Model Approach A thesis submitted to the Faculty of Business and Law in fulfilment of the requirements for the degree of doctor of philosophy in business management at The British University in Dubai April 2021.
7. Vyacheslav Leonidovich Somov, Mikhail Nikolaevich Tolmachyov, Aleksander Pavlovich Tsyurin; Вестник СГСЭУ. 2019. № 2 (76); Статистический Анализ Влияния Внешней Торговли На Экономику Региона
8. Pablo D Fajgelbaum, Labour Market Frictions, Firm Growth, and International Trade, *The Review of Economic Studies*, Volume 87, Issue 3, May 2020, Pages 1213–1260, <https://doi.org/10.1093/restud/rdz063>.
9. Jinchao Huang, Shuang Meng, Jiajie Yu, Xing Zhang, Distribution of export size, Pareto exponent and financial crisis, *Research in International Business and Finance*,
10. Volume 71, 2024, 102465, ISSN 0275-5319 <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2024.102465>.
11. Stat.uz axborotnomasi.
12. World bank data

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

